

QO‘Y VA ECHKILARNING SUT MAHSULDORLIGI

Yangiboeva Madina

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya. *Sovliq sutidan, asosan, pishloq tayyorlanib, sut holida kam iste'mol qilinadi. Eng ko'p tarqalgan pishloq – brinza bo'lib, quruq moddasi tarkibida 40-50% yog' bo'ladi. Sovliq sutida yog' nisbati yuqori bo'lgani bilan sariyog' tayyorlab bo'lmaydi, chunki u maxsus hidga ega bo'lib, surkaluvchan bo'ladi. Sovliq sutidan tayyorlangan mahsulotlar yuqori to'yimlilik va hazmlanish xususiyatiga ega. Echkilar sut beruvchi hayvon sifatida Hindistonda (dunyodagi echki bosh sonini 17%), Afrika, Janubiy Yevropa va G'arbiy Osiyo mamlakatlarida ko'plab urchitilmoqda. Echki laktatsiyasi davomida o'zining og'irligiga nisbatan 13-15 marta ba'zan 20 marta ortiq sut beradi.*

Kalit so'zlar: *qo'y, echki, sut, pishloq, mahsulot.*

МОЛОЧНАЯ ПРОДУКТИВНОСТЬ ОВЕЦ И КОЗ

Янгибоева Мадина

студент Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводство и биотехнологии

Аннотация. *Сыр в основном изготавливают из овечьего молока и редко употребляют в виде молока. Самый распространенный сыр – брынза, содержащий в сухом веществе 40-50% жира. Из-за высокой жирности овечьего молока из него невозможно приготовить сливочное масло, поскольку оно имеет особый запах и намажется. Продукты из свежего молока очень питательны и легкоусвояемы. Козы разводятся как молочные животные в Индии (17% мирового поголовья коз), Африке, Южной Европе и Западной Азии. За лактацию коза дает молока в 13-15 раз, иногда в 20 раз больше своего веса.*

Ключевые слова: *овца, коза, молоко, брынза, продукты.*

MILK PRODUCTIVITY OF SHEEP AND GOATS

Summary. *The cheese is primarily made from sheep's milk and is rarely consumed as milk. The most common cheese is feta cheese, containing 40-50% fat in dry matter. Due to the high fat content of sheep's milk, it is impossible to make butter from it, since it has a special smell and will spread. Fresh milk products are very nutritious and easily digestible.*

Goats are raised as dairy animals in India (17% of the world's goat population), Africa, Southern Europe and Western Asia. During lactation, a goat produces 13-15 times its milk, sometimes 20 times its weight.

Key words: *sheep, goat, milk, cheese, products*

Insoniyat hayotida sigir sutidan tashqari turli hayvonlar suti ham muhim ahamiyatga egadir. Aholining sut va sut mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda, bunday sutlar qo'shimcha manba hisoblanadi. Turli qishloq xo'jalik hayvonlarining suti, tarkibi, xususiyatlari va boshqa ko'rsatkichlari bilan bir biridan farq qiladi. Qaysi qishloq xo'jalik hayvonlarining sutini tarkibida oqsil va yog' ko'p bo'lsa, ularning bolalari o'sish va rivojlanishi shuncha jadal bo'ladi. Masalan: Tarkibida 3,3 % oqsilga ega bo'lgan sigir suti bilan oziqlangan buzoq, tug'ilgandagi tirik vazniga nisbatan og'irligini 50 kunda 2 marta oshirsa tarkibida 6 % oqsil bo'lgan qo'y suti bilan oziqlangan qo'zi tirik vaznini tug'ilgandagiga nisbatan 10 kun ichida 2 marta oshiradi.

Shimoliy hududlarda iqlimlashgan hayvonlar sutining tarkibida odatda yog' ko'p bo'ladi. Bunga asosiy sabab bolasini o'sishida sut yog'i asosiy energiya manbai bo'lib xizmat qiladi. Masalan: Shimol bug'isining sutini tarkibida 22,5% yog' saqlandi.

Sovliq suti boshqa qishloq xo'jalik hayvonlari sutidan quruq moddalarining ko'pligi bilan ajralib turadi: yog'i-6-8%, oqsili – 4,5-6,0, qandi – 4,6 va mineral moddalari 2-8%ni tashkil qiladi. Sovliqlarning sut mahsuldorligiga ularning zoti, oziqlantirish va saqlash sharoitlari, laktatsiya davri ta'sir qiladi.

Sovliq sutidan, asosan, pishloq tayyorlanib, sut holida kam iste'mol qilinadi. Eng ko'p tarqalgan pishloq – brinza bo'lib, quruq moddasi tarkibida 40-50% yog' bo'ladi. Sovliq sutida yog' nisbati yuqori bo'lgani bilan sariyog' tayyorlab bo'lmaydi, chunki u maxsus hidga ega bo'lib, surkaluvchan bo'ladi. Sovliq sutidan tayyorlangan mahsulotlar yuqori to'yimlilik va hazmlanish xususiyatiga ega. Bolqon Yarim oroli va Yaqin Sharqda sovliqlardan jun va go'sht olish bilan birga, sut olish urfga aylangan. Qo'y sutidan bozor uchun mahsulot ishlab chiqarish ko'pgina dag'al junli qo'y zotlariga to'g'ri keladi. Bularning ichida barra teri beruvchi (qorako'l) zotlar alohida o'rin tutadi, chunki sovlilarning qo'zisi barra teri uchun so'yilgandan keyin ular 1,5-2, oy mobaynida sog'iladi.

Qo'ylarni tanlash va juftlashda sut mahsuldorligining inobatga olinmasligi, ularni sut mahsuldorligining past bo'lishiga sabab hisoblanadi, va holanki, sut qo'zilarning bir kun o'sishida asosiy omil hisoblanadi. O'rtacha bir bosh qorako'l qo'yidan 30-40 kg, sigay qo'yidan 18-20 kg, dag'al junli qo'ylardan emizikli qo'zilari bilan 25-30 kg sut olish mumkin. Ba'zi zot sovliqlari suti faqat qo'zisiga yetib qolmasdan, balki sog'ish ham mumkin. Shunday zotlarga barcha Kavkaz, O'rta Osiyo va Qozog'iston zotlari kiradi.

Birinchi navbatda sovliqlarning sut mahsuldorligi ularni oziqlantirish darajasiga bog'liq. Qo'ylarning sut mahsuldorligi ularning konstitutsiyasiga ham bog'liq bo'ladi. Xisor zotli qo'ylarning konstitutsiya tiplariga qarab, sut mahsuldorligi o'rganilganda, dag'al tipli sovliqlar – 122 kg, mustahkam tipli – 112 kg, noziklari esa faqat 104 kg sut berganligi

isbotlangan. Ko'p hollarda ikki va undan ko'p qo'zi tuqqan sovliqlar bir qo'zi tuqqan sovliqlarga nisbatan ko'proq sut beradi. Shuningdek, emizikli qo'zilar soni va emish soni ham sut mahsuldorligida o'z aksini topadi. Qo'zilar soni qanchalik ko'p bo'lsa, sut mahsuldorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Erkak qo'zi tuqqan sovliqlarda, urg'ochi qo'zi tuqqanlariga nisbatan sut mahsuldorligining yuqori bo'lishi tasdig'ini topgan.

Sovliqlarning sut mahsuldorligi 4-5 laktatsiyaga ortib borib, keyin pastlab ketadi.[1]

Sovliqlarning sut mahsuldorligi sog'ib olingan, emgan sut miqdorini o'lchash, yoki qo'zilarining vazn qo'shishiga qarab aniqlanadi.

Emgan sut miqdorini aniqlash uchun qo'zilarni sovliqni emguncha va emgandan keyingi vaznini o'lchash bilan aiqlanadi, bu usulda ikki sutka davomida ma'lum vaqtlarda qo'zilar emishga qo'yiladi va o'lchanadi. Nazorat sog'imlar esa 1 oyda ikki marta o'tkaziladi. Bu usulning kamchiligi shundan iboratki, uni o'tkazish qiyin va sovliq tuqqandan keyin dastlabki kunlari qo'zi uning barcha sutini emib olamaydi, natijada sut mahsuldorligi past bo'lib ko'rinadi.[2]

Qo'zilar hayotining dastlabki 2-3 haftasida faqat ona suti bilan tamaddi qiladi, shu boisdan onasining sut mahsuldorligi va qo'zining bir oydagi o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik juda yuqori bo'ladi. Shuning uchun dastlabki 20 kundagi sut mahsuldorligi 20 kunlik qo'zi vaznidani tug'ilgandagi vazni olib tashlanib, 5 ga ko'paytiriladi (ya'ni 1 kg vazn oshishi uchun 5 kg sovliq suti sarflanadi).

Sovliqlarda laktatsiyaning birinchi oyidagi sut mahsuldorligi bilan, laktatsiya davomidagi sut mahsuldorligi o'rtasidagi ijobiy bog'lanish o'rnatilgan.

Insoniyat hayotida sigir sutidan tashqari turli hayvonlar suti ham muhim ahamiyatga egadir. Aholining sut va sut mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda, bunday sutlar qo'shimcha manba hisoblanadi. Turli qishloq xo'jalik hayvonlarining suti, tarkibi, xususiyatlari va boshqa ko'rsatkichlari bilan bir biridan farq qiladi. Qaysi qishloq xo'jalik hayvonlarining sutini tarkibida oqsil va yog' ko'p bo'lsa, ularning bolalari o'sish va rivojlanishi shuncha jadal bo'ladi. Masalan: Tarkibida 3,3 % oqsilga ega bo'lgan sigir suti bilan oziqlangan buzoq, tug'ilgandagi tirik vazniga nisbatan og'irligini 50 kunda 2 marta oshirsa tarkibida 6 % oqsil bo'lgan qo'y suti bilan oziqlangan qo'zi tirik vaznini tug'ilgandagiga nisbatan 10 kun ichida 2 marta oshiradi. [3]

Shimoliy hududlarda iqlimlashgan hayvonlar sutining tarkibida odatda yog' ko'p bo'ladi. Bunga asosiy sabab bolasini o'sishida sut yog'i asosiy energiya manbai bo'lib xizmat qiladi. Masalan: Shimol bug'isining sutini tarkibida 22,5% yog' saqlandi.

Echki sutining tarkibi va xususiyatlari. Dunyo miqiyosida ishlab chiqarilayotgan sutning 3% ga yaqini echki sutiga to'g'ri keladi. Shvesariya, Rossiya, Fransiya, Yangi Zelandiya va boshqa mamlakatlarda echkichilik, ayniqsa, sudor echkichilik yaxshi rivojlangan. Echki zotlari dunyoning tog'li o'lkalarida ko'p tarqalgan, chunki, bunday yaylovlarni sigirlar va boshqa hayvonlar yaxshi o'zlashtira olmaydi.

Echkilar sut beruvchi hayvon sifatida Hindistonda (dunyodagi echki bosh sonini 17%), Afrika, Janubiy Yevropa va G'arbiy Osiyo mamlakatlarida ko'plab urchitilmoqda. Echki

laktatsiyasi davomida o'zining og'irligiga nisbatan 13-15 marta ba'zan 20 marta ortiq sut beradi. Rossiya mamlakatida Rus, Gorkiy, Mingrel zotli echkilar urchitilmoqda.

Echkilar 5-8 oylik laktatsiyasida, o'rtacha 150-250 kg, yaxshi saqlash va oziqlantirish sharoitida esa 700-800 kg gacha sut berishi mumkin. Ayrim echkilar laktatsiyasida 1700 kg gacha, yog'liligi 4-5% bo'lgan sut berishi mumkin. Mahalliy Toshkent echkilaridan, Layka laqabli echki 210 kunlik (1-laktatsiyasida) sog'imida 698 kg, 5 laktatsiyasida sut mahsuldorligi 1705 kg ni tashkil etgan. Rojka laqabli echkidan esa 1-laktatsiyasida 1139 kg sut sog'ib olinib, eng yuqori kunlik sog'imi 5,5 kg to'g'ri kelgan. [4]

AQShda urchitilayotgan Fransiya alp zotli rekord echkilarining sog'imi 2189 kg, Zaanen zotida esa bu ko'rsatkichi 2493 kg ni tashkil qilgan. Echkilarning og'iz sutining tarkibida birinchi kunida quruq modda 28%, oqsil 8,4% ni tashkil etsa, uchinchi kunida quruq modda 15,5 va oqsil 4,4 % gacha pasayadi.

Echki sutida yog' 4,4 %, oqsil 3,3%, sut qandi 4,9 % va mineral moddalar 0,8% ni tashkil qiladi. Quruq modda o'rtacha 13,7% ga teng. Echki sutining tarkibi va xususiyatlariga, ularning zoti, individual xususiyati, oziqlantirish va saqlash sharoiti ta'sir qiladi. Echki suti kimyoviy tarkibi bo'yicha sigir sutiga yaqin turadi. Echki sutining tarkibida sigir sutiga qaraganda, quruq modda, yog', kalsiy, fosfor ko'p bo'lib, yog' donachalari kichik bo'ladi.

Echki sutini tabiiy holatda yoki undan pishloq va sut mahsulotlari tayyorlab iste'mol qilish mumkin. U davolash va parhezbob xususiyatga ega. Keyingi yillarda yosh go'dak bolalarni oziqlantirishda undan keng foydalanilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Qorako'lchilik sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3603 sonli qarori. Toshkent. 2018 yil 14 mart. lex.uz
2. «Qorako'lchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4420-sonli qarori. Toshkent. 2019 yil 16avgust. lex.uz
3. Шацкий А.Д., Кравцевич В.П. “Овцеводство” Учебно пособие. Минск, 2016 год.
4. Сулейманова, М. К., Суюнова, З. Б., Нортошева, М., & Бердикулов, Ф. Ш. (2024). РОСТ И РАЗВИТИЕ ПОТОМСТВА ОВЕЦ РАЗНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ТИПОВ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ МОЛОЧНОСТИ МАТОК. International Journal of Formal Education, 3(3), 361-366.
5. НУРМУРОДОВ, А., & СУЛЕЙМАНОВА, М. (2022). Приспособление для доения каракульских овец. In Интеллектуальный потенциал молодых ученых как драйвер развития АПК (pp. 276-279).

6. Suleymanova, M., Rizayeva, D., & Khuseinova, M. (2023). Genetic testing of sheep for prolactin (PRL) gene. *International journal of biological engineering and agriculture*, 2(6), 74-78.

7. Бошмонов, С., Ризаева, Д., & Сулаймонова, М. (2023). Қо ‘uchilikni hozirgi holati va uni rivojlantirish istiqbollari. *Актуальные проблемы пустынного животноводства, экологии и создания пастбищных агрофитоценозов*, 1(1), 96-100.

8. Сулейманова, М. К., Ризаева, Д. Т., & Бошмонов, С. С. (2023). Влияние молочной продуктивности каракульских овец разной окраски на живой вес и прирост ягнят. *Актуальные проблемы пустынного животноводства, экологии и создания пастбищных агрофитоценозов*, 1(1), 127-129.

9. Сулейманова, М. К. (2023). ВЫДЕЛЕНИЕ ДНК ПЦР МЕТОДОМ ИЗ ХРЯЩЕВОЙ ТКАНИ У ОВЕЦ РАЗНЫХ ГЕНОТИПОВ. *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*, 123-131.

10. Шеркулова, Ф. Э., & Гаппаров, Ш. Т. (2023). ОРЕНБУРГ ЗОТЛИ ЭЧКИЛАРНИНГ ИССИҚ ИҚЛИМ ШАРОИТИГА МОСЛАШИШИ. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 241-246.

11. Хусейнова, М. А., Гаппаров, Ш. Т., & Шеркулова, Ф. Э. (2021). Молочная продуктивность и состав молока местных коз Узбекистана и их помесей с русской белой породой.